

DURIYNING ABU AMR BASRIYDAN QILGAN RVOYATI USULLARI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Umarova Nilufar Ulug'bek qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

24.00.02. Qur'onshunoslik. Hadisshunoslik mutaxassisligi stajyor-tadqiqotchisi

tel: 88 008 85 68

e-mail: umarov.s.f@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498771>

Dunyoda tarqalishi bo'yicha 3-o'rinda turuvchi qiroat Duriy qiroatidir. Uning qiroati bugungi kunda Afrikaning markaziy qismlarida tarqalgan. Duriy qiroati idg'omning hamda kichik imolaning ko'pligi bilan ajralib turadi.

Duriy qiroatni Abu Amr Basriydan olgan. U kishi ham ikki shogirdiga ikki xil yo'l (vajh) bilan rivoyat qilgan. Bu vajhning birinchisi imom Duriy, ikkinchisi imom Susiy. Imom Duriy – Hafs ibn Umar ibn Abdulaziz Suhban Duriy Bag'dodiy bo'lgan. (Hafs an Osim – Hafs Kufiy. Hafs an Abu Amr – Hafs Duriy). U nahvshunos, muqri (Qur'onni ta'lim beruvchi), ko'zi ojiz bo'lgan. Ikki imom: Abu Amr va Kisoiydan rivoyat qilgan. Kisoiyning ham ikkita shogirdi rivoyat qilgan. Shu shogirdlaridan biri Hafs Duriy bo'ladi. Duriy ikki qiroat imomidan boshqa-boshqa yo'l bilan rivoyat qilgan.

Kunyasi: Abu Amr bo'lib, Dur degan joyga nisbat beriladi. U Bag'doddagi bir shahar va Bag'dod sharqidagi mahalla.

Hijriy 150-yilda Dur degan joyda xalifa Mansur davrida tavallud topgan. Odamlardan ko'plariga Qur'onni tilovat qilib bergan. Jumladan, Imom Nofe'ga, Ja'farga, Salim ibn Jammozga, Kisoiyga, Yahyo ibn Muborak Yazidiyga Abu Amr tomonidan o'qib bergan. Bu kishi o'zining asrida qorilarning imomi va insonlarning shayxi bo'lgan. O'z zamonida ahli Iroqning shayxi bo'lgan. U kishi qiroatlarni jamlagan ilk kishilardandir. 7 qiroat bo'yicha kitob yozgan kishilarning avvali edi. Demak, qiroatlarni birinchilardan bo'lib jamlagan kishi Hafs ibn Umar ibn Abdulaziz Duriy edi. Imom Ahvoziy aytadi: "U kishi qiroatni talab qilishda safar qildi va harflarning har xili bilan o'qidi: mutavotiri, sahihi, shoz, ya'ni zaifi va munkarining barchasini o'qib o'rgandi. Duriyning sanadi oliy, ilmi balqib turgani uchun odamlar ufqlarning hamma tomonidan u kishini qasd qilib keldi. Duriy Mutavakkilning xalifalik zamonida 246-yil shavvol oyida vafot etdi".¹

"Hafs ibn Umar Duriyning qiroatdagi manhajlari quyidagicha:

1-masala. Istioza va basmala. Istioza va basmala aytish uslubi Hafsning Osimdan qilgan rivoyati bilan bir xil.

2-masala. Ko'plik "mim"i. Ko'plik "mim"idan keyin sukun bo'lsa, yoki "ha"dan avval sukunli "yo" yoki kasra kelsa, "mim" va "ha" harflari vaslda kasra qilib o'qiladi. Vaqfda "ha" kasra, "mim" sukun qilinadi. عَلَيْهِمُ الْقِتَالُ، بِهِمُ الْأَسْبَابُ، قَاتَلْتَهُمُ الَّتِي، عَلَيْهِمُ الذَّلَّةُ kabi.

3-masala. Kichik idg'om.

أُدْ so'zidagi "د" harfi quyidagi 6 harfga yo'liqqanda idg'om qilinadi:

"ت" ga – *إِنْدَ تَنْبَرًا* (Baqara 166); *إِنْدَ تَقْوَلٍ* (Baqara 124).

"ز" ga – *وَإِنْدَ زَيْنٍ* (Anfol 48); *وَإِنْدَ زَاعَتٍ* (Ahzob 10).

"ص" ga – *إِنْدَ صَرْفَانَا* (Ahqof 29).

¹ Shayx Muhyiddin Muhammad Mansurning qiroatlar borasidagi audio darslari. ([Dars - YouTube](https://www.youtube.com/watch?v=...) قرآنة دورى أبى عمرو).

“د” ga – *إِنْدَ دَخَلُوا* (Hijr 52, Sod 22, Zoriyot 25); *إِنْدَ دَخَلْتُ* (Kahf 39).

“س” ga – *إِنْدَ سَمِعْتُمُوهُ* (Nur 12, 16).

“ج” ga – *إِنْدَ جَاءَنِي* (Furqon 29); *إِنْدَ جَعَلُ* (Moida 20, Fath 26).

so'zidagi “د” harfi quyidagi 8 harfga yo'liqqanda idg'om qilinadi:

“س” ga – *قَدْ سَمِعَ* (Oli Imron 181, Mujodala 1); *قَدْ سَرَقَ* (Yusuf 77).

“ذ” ga – *وَلَقَدْ ذَرَأْنَا* (A'rof 179).

“ض” ga – *وَلَقَدْ ضَرَبْنَا* (Rum 58, Zumar 27); *قَدْ ضَلَلْتُ* (An'om 56).

“ظ” ga – *لَقَدْ ظَلَمَكَ* (Sod 24); *فَقَدْ ظَلَمَ* (Baqara 231, Taloq 1).

“ز” ga – *وَلَقَدْ زَيَّنَّا* (Mulk 5).

“ج” ga – *قَدْ جَمَعُوا* (Oli Imron 173); *قَدْ جَعَلَهَا* (Yusuf 100).

“ص” ga – *لَقَدْ صَدَقَ* (Sabo 20, Fath 27); *فَقَدْ صَعَتَ* (Tahrim 4).

“ش” ga – *قَدْ شَغَفَهَا* (Yusuf 30).

Sukunli muannaslik “ta”si quyidagi 6 harfga yo'liqqanda idg'om qilinadi:

“س” ga – *أَنْبِئْتُ سَبِيعَ* (Baqara 261); *فَكَانَتْ سَرَابًا* (Naba' 20).

“ث” ga – *بَعِدْتُ ثَمُودَ* (Hud 95); *كَذَّبْتُ ثَمُودَ* (Qamar 23, al-Haqqo 4, Shams 11).

“ص” ga – *حَصِرْتُ صُدُورُهُمْ* (Niso 90); *لَهَيْمَتْ صَوَامِعَ* (Haj 40).

“ز” ga – *حَبَبْتُ زِنَاهُمْ* (Isro 97).

“ظ” ga – *كَانَتْ ظَالِمَةً* (Anbiyo 11); *حُرِّمَتْ ظُهُورُهَا* (An'om 138, 146).

“ج” ga – *نَضِجَتْ جُودُهُمْ* (Niso 56); *وَجِبَتْ جُنُوبُهَا* (Haj 36).

“هَلْ تَرَى” idg'om qilinadi (Mulk 3, Haqqo 8). “هَلْ” va “بَلْ” so'zlari boshqa so'zlarga yo'liqqanda izhor qilinadi.

4-masala. Idg'om kabir. U ikki harakatli harf bir-biriga yo'liqqanda birinchi harfning ikkinchisi kabi tashdidli yagona harfga aylanib ketishidir. Duriy faqat bir o'rinda “ت”ni “ط”ga idg'om qiladi: *بَيْتَ طَائِفَةٍ* (Niso 81). Abu Amr Basriyning ikkinchi roviysi bo'lmish Susiy qiroati katta idg'omlarning juda ko'p uchrashi bilan ajralib turadi.

5-masala. Kichik idg'om mutajonisayn va mutaqoribayn. Jazm (sukunli) holatdagi “ب” harfi “ه” harfiga yo'liqqanda idg'om qilinadi. U 5 o'rinda uchraydi:

يَغْلِبُ فَسَوْفَ (Niso 74);

تَعْجَبُ فَعَجِبَ (Ra'd 5);

أُذْهِبَ فَمِنْ (Isro 63);

فَأَذْهِبَ فَاِنَّ (Toha 97);

وَمَنْ لَمْ يَنْتَبْ فَأُولَئِكَ (Hujurot 11).

Jazm holatdagi “ر” harfi “ج”ga idg'om qilinadi:

تَغْفِرُ لَكُمْ (Baqara 58, A'rof 161);

فَيَغْفِرُ لِمَنْ (Baqara 284) (“ro” jazm bilan o'qiladi);

فَاصْبِرْ لِحُكْمِ (Qalam 48, Inson 24).

“ذ” harfi “ت”ga idg'om qilinadi:

فَنَبَذْنَاهَا (Toha 96);

عَذْتُ (G'ofir 27, Duxon 20);

اتَّخَذْتُمْ (Josiya 35).

“ث” harfi “ت”ga idg'om qilinadi:

أُورِثْتُمُوهَا (A'rof 43, Zuxruf 72);

لَيْبْتُمْ – لَيْبْتُ (Qur'onda ko'p o'rinlarda kelgan).

“د” harfi “ت”ga idg'om qilinadi:

وَمَنْ يُرِدْ ثَوَابَ (Oli Imron 145).

“ب” harfi “م”ga idg’om qilinadi:

وَيُعَلِّبُ مَنْ يَشَاءُ (Baqara 284) (G’unna bilan o’qiladi).

“د” harfi “ذ”ga idg’om qilinadi:

كَهَيْصِ (1) نِكْرُ (Kahf 1-2-oyatlar).

6-masala. Sila bobi. Kinoya “ha”si Hafsniki bilan bir xil. Unga xilof qilmaydi.

7-masala. Mad va qasr bobi. Duriydan mad munfasilni qasr, muttalisni tavassut qilish rivoyat qilingan. (qolgan mad qismlari Hafsnikidan farq qilmaydi)².

8-masala. Bir so’z tarkibidagi ikki hamza. U bir so’z tarkibida kelib, bir-biriga yopishib, ko’rinib turgan ikki qat’iy hamzadir. Ulardan birinchi hamza fathali bo’lishi lozim. Ikkinchi hamza esa “عَنْدَرْتَهُمْ” (Baqara 6) kabi fathali bo’lishi ham, “أَعْلَهُ” (Naml 60) kabi kasrali bo’lishi ham, “أَوْلَيْتَكُمْ” (Oli Imron 15) kabi zammali bo’lishi ham mumkin.

Bitta kalimada kelgan ikki hamzadan ikkinchisi tas’hil qilinadi. Masalan, “عَرَانْتُمْ”, “عَرَانْتِك”, “عَرَانْرِل” kabilarda ikki hamzaning o’tasiga alif kirgizish bilan tas’hil qilinadi.

9-masala. Ikki so’z tarkibidagi ikki hamza. Ikki so’z tarkibida kelgan harakatlari bir xil bo’lgan hamzaning avvalgisini tushurib, ikkinchi hamza o’qiladi:

“شَاءَ أَنْشَرَهُ” so’zi “شَاءَ أَنْشَرَهُ” tarzida o’qiladi;

“هُؤَلَاءَ إِنْ كُنْتُمْ” so’zi “هُؤَلَاءَ إِنْ كُنْتُمْ” tarzida o’qiladi;

“أَوْلِيَاءَ أَوْلَانِكَ” so’zi “أَوْلِيَاءَ أَوْلَانِكَ” tarzida o’qiladi.

b) Ikki so’z tarkibida kelgan ikki xil harakatli hamzaning agar avvalgisi fathali, ikkinchisi kasrali bo’lsa, ikkinchisi tas’hil qilinadi:

“وَجَاءَ إِخْوَةَ يُوسُفَ” kalimasi “وَجَاءَ إِخْوَةَ يُوسُفَ” tarzida o’qiladi.

c) Yoki avvalgisi fathali, ikkinchisi zammali bo’lsa ham ikkinchi hamza yengillatib o’qiladi: “جَاءَ أُمَّةٌ” kalimasi “جَاءَ أُمَّةٌ” tarzida o’qiladi.

d) Yoki avvalgisi zammali, ikkinchisi fathali bo’lgan hamzaning ikkinchisi ochiq “vov” harfiga almashtiriladi: “السُّفَهَاءُ أَلَا” kalimasi “السُّفَهَاءُ وَلَا” tarzida o’qiladi.

e) Yoki avvalgisi kasrali, ikkinchisi fathali bo’lgan ikki hamzaning ikkinchisi ochiq “yo” tovushiga almashtiriladi: “مِنَ السَّمَاءِ آيَةً” kalimasi “مِنَ السَّمَاءِ يَايَةً” tarzida o’qiladi.

f) Yoki avvalgisi zammali, ikkinchisi kasrali bo’lgan ikki hamzaning ikkinchisi yengillatib o’qiladi yoki “vov”ga amashtiriladi, ikkisi ham joiz:

“يَشَاءَ إِلَى” so’zini “يَشَاءَ إِلَى” yoki “يَشَاءَ وَإِلَى” tarzida o’qish joiz.³

12-masala. Sakta bobi. Quyidagi o’rinlarda sakta tark etiladi:

“وَلَمْ يَجْعَلْ لَهُ عِوَجًا س قِيمًا” (Kahf 1-2)dagi “عِوَجًا” so’zidagi tanvin “qof” harfiga ixfo qilinadi;

“مِنَ مَرْقَدِنَا س هَذَا” (Yasin 52);

“وَقِيلَ مَنْ س رَاقِي” (Qiyomat 27)da “nun” “ro” harfiga idg’om qilinadi;

“كَلَّا بَلْ س رَانَ” (Mutoffifin 14)da “lam” harfi “ro”ga idg’om qilinadi.

13-masala. Fath va imola bobi. Mus’hafda o’zidan avval “ro” harfi kelgan barcha alif maqsuralar imola qilinadi. Masalan:

“النَّصَارَى” (Baqara 62);

“وَبُيُوتِرَى” (Baqara 97);

“الْمُنْتَرَى” (Tavba 111);

“الْيُنَيْسِرَى” (Layl 7)

² Jamol Fayyoz. Rivoyat Duriy an Abi Amr Basriy. 18-33-b.

³ Shayx Muhyiddin Muhammad Mansurning qiroatlar borasidagi audio darslari. ([Dars - YouTube](#)).

“يَا بُشَيْرِي” soʻzida esa fath, imola va taqlil qilish borasida ixtilof bor. Muhaqqiqlar uchlasini ham toʻgʻri deyishgan.

Shuningdek, “تُتْرَا” soʻzida fath va imola qilish borasida ham ixtilof bor.

Oʻzidan avval alif kelayotgan kasrali “ro” harfining ham barchasi imola qilinadi:

“أَبْصَارَهُمْ” (Baqara 7);

“جَبَّارٍ” (Hud 59);

“أَوْوَابِرَهَا” (Nahl 80);

“مَكْأَفْخَارٍ” (Rohman 14).

Ikkinchisi majrur (qaratqich kelishigida) boʻlgan ikki “ro” harfining oʻrtasida kelgan alif ham imola qilinadi:

“الْأَبْرَارِ” (Mutoffifin 19);

“قَرَارٍ” (Ibrohim 26);

“الْأَشْرَارِ” (Sod 62).

14-masala. Taqlil bobi. (فَعْلَى) (faʼla, fiʼla, fuʼla) vaznida kelgan muannaslik alif maqsurasining barchasi taqlil qilinadi:

“مُوسَى” 134 oʻrinda kelgan;

“الْقُرْبَى” 12 oʻrinda kelgan;

“فِي الْإِنْسَى” 10 oʻrinda kelgan.

“الر” va “الم” da kelgan “ro”lar imola qilinadi;

“مُهَيْبَعَص” da kelgan “ha” imola qilinadi;

“ح” da kelgan “ha” imola qilinadi;

“النَّاس” va “النَّس” soʻzlarida kelgan aliflar imola qilinadi (faqat jar holatidagilari);

Istisno: “كُنَّا” (Kahf 33) soʻzidagi “alif”ni oʻqish borasida ixtilof mavjud. Bir qavlgga koʻra uning alifi “لِحْدَى” soʻzi kabi muannaslik alifidir. Boshqa qavlgga koʻra esa u “فَعْلَى” vaznidagi soʻzning ikkilik alifidir. Uni ikki xil oʻqish mumkin. Birinchisi vaqfda hech qanday ixtilofsiz taqlil qilib oʻqish, ikkinchisi fatha qilib oʻqish.

15-masala. Xat rasmidagi vaqf bobi. Rasmda majrur holatdagi “ta” shaklida yozilgan muannaslik “ha”lari “ha” bilan vaqf qilinadi.

“رَحْمَتٍ” 7 oʻrinda uchraydi;

“بِعَمَتٍ” 11 oʻrinda uchraydi;

“سَنَّتٍ” 5 oʻrinda uchraydi.

“فَمَرَاتٍ” soʻzida vaqf qilinganda alif hazf boʻlib, “ha” bilan vaqf qilinadi.

“وَكَايِنٍ” soʻzida “ya”ga vaqf qilinadi va u 7 oʻrinda uchraydi⁴.

Ushbular Duriyning qiroatdagi manhaj (usul)laridir.

Xulosa qilib aytganda, Duriy rivoyatining oʻziga xos jihatlaridan biri qiroatda idgʻom, katta va kichik imola hamda tasʼhil qoidasining koʻp uchrashidir. Hafs ibn Umar Duriyning Abu Amr Basriydan qilgan rivoyati Somali, Sudan, Chad, Nigeriya va Markaziy Afrikada eng keng tarqalgan rivoyatdir. Bugungi kunda Duriy rivoyatidagi Musʼhaflar Sudan va Madinai Munavvarada chop qilinadi.

References:

1. Abdulfattoh Qoziy. Al-Budur az-zahira fil qiroatil ashril mutavatira. – Misr.

⁴ Jamol Fayyoz. Rivayat Duriy an Abi Amr Basriy. 40-55-b.

2. Abdulfattoh Sayid Ajamiy. Hidoya al-qori ila tajvid kalomul Boriy. – Madina: Dorul fajr al-islomiy, 2005.
3. Abdurrahmon ibn Muhammad ibn Zanjaliy. Hujjatul qiroat. – Bayrut: Muassasa ar-risala, 1997.
4. Abu Hayyon Andalusiy. Al-Bahrul muhit. – Bayrut: Dorul fikr, 1398-h.
5. Abu Zakariyyo Al-Faro. Ma’anil Qur’an. – Bayrut: Olamil kutub, 1980.
6. Abul Ayman Abu Bakr Muhammad. Al-Muxtasarul mufiyd fi ma’rifati usuli rivayati Varsh. – Qohira: Maktabatu olamul fikr, 1983.
7. Abulfattoh Abdulg’ani Qozi. Nazmul jomi’ liqiroati imom Nofe’. – Qohira: Al-Maktabatul azhariyya.
8. Abulfattoh Abdulg’ani Qozi. Vofiy fi sharhish Shotibiyya. – Jidda: Maktabas savadiy lit-tavzi’, 1999.

INNOVATIVE
ACADEMY